



Barchinoy ZOKIROVA,

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

E-mail: keldiyorovab@gmail.com

O'zDJTU professori, f.f.d. X.Muxammedova taqrizi asosida

ABDULLA QAHHOR VA RAYMOND KARVER ASARLARIDA G'OYAVIY-BADIIY MAZMUN

Annotsatsiya

Mazkur maqolada badiiy asar qurilishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan g'oya, hamda mazmun borasidagi asosli fikr-mulohazalar keltiriladi va ikki yirik yozuvchilarning hikoyalari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, o'zbek adabiyoti sahnasida yorqin iz qoldirgan ijodkor Abdulla Qahhor va Amerikaning mashhur hikoyanavisi Raymond Karver asarlaridagi o'zaro g'oyaviy yaqinlik, sermazzmunlik va ixchamlik masalalaridagi universallik turli xil nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Ushbu ijodkorlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar o'zining dolzarbligi, umumbashariy va umuminsoniyligi bilan alohida xarakterga ega ekanligi tahlil ostiga olingan hikoyalari asosida qiyosiy talqin qilinadi. **Kalit so'zlar:** Badiiy g'oya, muallif g'oyasi, lakonik uslub, g'oyaviy-badiiy mazmun, g'oyaviy pozitsiya, bosh g'oya, yordamchi g'oya.

IMAGINATIVE-ARTISTIC CONTENT IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR AND RAYMOND CARVER

Annotation

This article presents well-founded opinions on the idea and content, which are of particular importance in the construction of a work of art, and a comparative analysis is made using the example of the stories of two great writers. In particular, the universality in the issues of ideological proximity, content and conciseness in the works of the creator Abdulla Qahhor, who left a bright mark on the stage of Uzbek literature, and the famous American short story writer Raymond Carver, is considered from different points of view. The ideas put forward by these creators are distinguished by their relevance, universality and universality, and are interpreted comparatively on the basis of the stories under analysis.

Key words: Artistic idea, author's idea, laconic style, ideological and artistic content, ideological position, main idea, auxiliary idea.

ТВОРЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ В РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХОРА И РЭЙМОНДА КАРВЕРА

Аннотация

В данной статье представлены обоснованные мнения об идее и содержании, имеющих особое значение при создании произведения искусства, и проведен сравнительный анализ на примере рассказов двух великих писателей. В частности, рассматривается универсальность в вопросах идеологической близости, содержания и лаконичности в произведениях писателя Абдуллы Каххора, оставившего яркий след на сцене узбекской литературы, и известного американского писателя-новеллиста Раймонда Карвера, с разных точек зрения. Выдвинутые этими писателями идеи отличаются актуальностью, универсальностью и всеобъемлющим смыслом и интерпретируются сравнительно на основе анализируемых рассказов.

Ключевые слова: Художественная идея, авторская идея, лаконичный стиль, идеологическое и художественное содержание, идеологическая позиция, главная идея, вспомогательная идея.

Kirish. Badiiy asar qurilishi, shakli nechog'lik muhim bo'lsa, yozuvchi ifodalashni maqsad qilgan fikr ham shu qadar ahamiyatli va birlamchidir. Asarda keltirilgan tavsiflar, predmetlar, obrazlar asarning go'yasini vujudga keltiradi. Yozuvchi tomonidan ilgari surilgan g'oya esa qahramonlar psixologiyasi, ularning taqdiri, boshidan o'tkazgan sinovlari ichiga singib ketadi va sujetni harakatga keltiradi. Shu darajada yaxlitlashib ketganidan muallif asar g'oyasiga alohida to'xtamay yo ishora qilmay turib, o'qish jarayonida kitobxonning o'zi anglab yetadi. Tadqiqotimiz davomida tahlilga olingan adiblar ijodida ham o'ziga xos g'oyaviy-badiiy mazmuni talqin qilish mumkin. Raymond Karver va Abdulla Qahhor hikoyalari turli-tuman muammolar alohida sujetlar orqali atroflicha muhokama qilingan. Masalan, Raymon Karver o'z asarlarida kunalik hayotda oddiy insonlar boshdan kechiradigan mayda muammolar, ba'zi shaxslar orasidagi muloqotlarning samarasizligi, yolg'izlik, izolyatsiya, fojiaiy aloqalar, umidsiz insonlar taqdiri, ruhiy uyg'onish va ba'zi hollarda qalb ko'zining ochilishi kabi g'arb madaniyatiga xos masalalar to'g'risida yozgan bo'lsa, Abdulla

Qahhor insoniy qadr-qimmat, jaholat, mutelik, tobelik, huquqsizlik va qashshoqlik kabi mavzularni o'tkir jumlar bilan ochib berishga intilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Har qanday badiiy asar qaysidir ma'noda real hayotning kichik bir manzarasi hisoblanadi. Turmushning chigal, murakkab jarayonlarida turli-tuman g'oyalar paydo bo'ladi va badiiy asarlarga ko'chganda esa g'oyaviy mazmunning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Tolstoy shunday deydi: "Har qanday asar faqat hayotning yangi tomonini ochib bersagina san'at asaridir"[1]. A.Chexov "Xat" hikoyasida Tolstoy asarini ko'zda tutib yozgan edi: "Men bu kitobni butun kun bo'yi o'qidim, meni qattiq hayajon chulg'ab oldi va men hayotning avval bilmaganim yangi usurlari qalbimning tub-tubidan joy olayotganini sezib turdim. Har yangi sahifani o'qiganim sari men yana boyroq, kuchliroq, yuksakroq bo'la bordim"[2]. Shunday qilib, badiiy asardagi g'oya turmush hodisalari ustidan chiqariladigan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional ifodalash yakunidir [3].

Xususan, Hotam Umurovning "Adabiyot qoidalari", To'xta Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari" hamda Dilmurod Qur'onov va Izzat Sultonning adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan asarlarida ham g'oya, mazmun va uning turlari va mavzu to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. G'oyaviy- mazmun nuqtayi nazaridan tahlil qilingan hikoyalar esa Abdulla Qahhorning "Anor" va Raymond Karverning "Hikoyalar to'plami" asarlariga mansubdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida psixologik, biografik, sotsiologik va qiyosiy-tarixiy metodlardan samarali foydalanilgan. Tadqiqotni amalga oshirish uchun ijodkorlar biografiyasi va ijodi bilan yaqindan o'rganilgan. Tadqiqot obyektini sifatida Abdulla Qahhorning "Boshsiz odam" hamda Raymond Karverning "Ular sening ering emas" (They are not your husband) hikoyasi tanlab olingan. Tahlil va natijalar. Raymond Karver o'z hikoyalarida kundalik turmushda kuzatiladigan vaziyatlar nozik munosabatlarga alohida e'tibor qaratgan. Hikoyada jumlar siyrak, ba'zida uzuq-yuluq suhbatlar asosida shakllantirilgan, bu orqali asarni o'qish orqali real hayotga sho'ng'ib ketish mumkin. Undagi soddalik, kichik-kichik lavhalarining qamrab olinishi, detallardan mohirona foydalanilishi va murakkablikdan chekinish orqali badiiy g'oyani ifodalay olishi tahsinga sazovordir.

Karver kichik odamlar haqida kichik hikoyalar yozadigan kichik rassom sifatida tanilgan. Karverning aksariyat qahramonlari ishchi sinfiga mansub ekanligi rost bo'lsa-da, ularning muammolari universaldir. Karver ajralish, xiyonat, ma'naviy begonalashuv, alkogolizm, bankrotlik, ildizsizlik va mavjudlik qo'rquvi haqida yozadi. Bu azoblarning hech biri ishchi sinfiga xos emas va aslida ularning barchasi bir vaqtlar yuqori ijtimoiy tabaqa a'zolari uchun odatiy hol bo'lgan[4].

Agar yozuvchi o'z asarida masalani to'g'ri qo'ya olgan bo'lsa, undan kitobxon ham to'g'ri xulosa keltirib chiqaradi. Bundan, badiiy ijodda g'oyasiz asar ham bo'lishi mumkin ekan-da, degan yanglish xulosaga kelmaslik kerak. Biz bilamizki, asarda u yoki bu masalaning qo'yilishining o'ziyoq muallifning shu masalaga bo'lgan g'oyaviy pozitsiyasini belgilaydi-yozuvchi hayotdagi nimaiki narsa narsani muhim-tipik deb hisoblasa, shu narsani asarida tasvirlaydi. Shu sababli, asarda muallif g'oyasi aniq bayon qilinishi yoki qilinmasligidan qat'iy nazar, kitobxon voqealar talqinidan asar g'oyasini aniq tasavvur qila oladi[5].

Raymon Karverning navbatdagi "Ular sening ering emas" (They aren't your husband) deb nomlangan hikoyasi ham g'oyaviy mazmun jihatidan chuqur va serqirra asarlar sirasiga kiradi. Hikoyaning asosiy g'oyasi orqali ma'nan qashshoq, o'z mustaqil fikriga ega bo'lmagan, erkaklik g'ururi inqirozga yuz tutgan, hattoki o'zligiga ham begona bo'lgan, jamiyatning shaxsiyatiga ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yib bergan insonning xudbinlik harakatlari ochib berilgan. Shuningdek, o'sha davrning dolzarb muammolaridan bo'lgan odamlar o'rtasidagi raqobat, yaxshiroq yashash uchun har qanday yo'ldan yurib ko'rish, jamiyat fikri bilan barcha narsalar va hattoki insonlarga ham baho berish kabi masalalarga urg'u berilgan. Hikoya qahramonlari vaqtincha ishsiz sotuvchi Erl va tun-u kun ofitsant bo'lib ishlaydigan rafiqasi Dorin bo'lib, asar Erlning rafiqasi ishlaydigan qahvaxonaga kelishi bilan boshlanadi. Ayoliga taom buyurtma qilib bo'lgach, ro'parasida o'tirgan ikki erakakning qay tarzda Dorinni haqoratlab, muhokama qilishayotganligi va unga qarata "semiz" deb ta'rif berishganligi Erlning qulog'iga chalinadi. Erl bu so'zlardan g'azablangan bo'lsada hech narsa deymaydi, aksincha ularning kamsitishlarini "to'g'ri" qabul qiladi. Rafiqasi uyga kelgach esa unga vazn yo'qotishi u uchun manfaatli bo'lishini uqtiradi va hattoki uyga tarozi ham olib keladi. Tashqi ko'rinishi haqidagi bunday tanqiddan keyin Dorin ham parhez qilib, mashq qilishni boshlaydi. Oqibatda, u

haddan tashqari ozib, rangsiz va kuchsiz bo'lib borar, bu ahvolini ko'rgach, atrofda ham e'tiroz paydo bo'ladi. Dorin Erlga bu holatni tushuntirmoqchi bo'lganda esa, "Ular sening ering emas" degan keskin javobni oladi. Oradan kunlar o'tib, endi qanday gaplarni eshitishga qiziqqan Erl yana qahvaxonaga boradi va kim xotini haqida biror fikr bildirar ekan deb kutib o'tiradi, hattoki yonida o'tirgan notanish erkakka qarata bu ayol qanday? Nima deysiz? deb so'rashdan ham uyalamaydi. Erkak esa gaplariga parvo ham qilmaydi. Shunday qilib, "uddaburon" sotuvchining bu safar omadi kelmaydi, ayolini munosib "baholatisini" uddalay olmaydi. Erlning qiliqlarini ko'rib turgan ofitsantlar bu "mazxaraboz" ning kimligi so'rashganda, ming afsus bilan "Bu mening erim" deb javob beradi Dorin. Asarda faqatgina mustaqil fikriga ega bo'lmagan, rafiqasiga jismdek qaraydigan erkak va o'z qadri ni anglamay, unga mulkdek munosabatda bo'lishiga yo'l qo'yib bergan ayoligina emas, butun oiladagi o'zaro sovuqqonlik, begonalashuv masalasi ham qamrab olingan. Erlning shavqatsiz tanqidiy fikrlari tufayli, Dorin o'ziga bo'lgan ishonchidan ayriladi, ruhiy tushkunlikka tushadi va sog'lig'iga putur yetkazadi: "I hate to say anything, Earl said, "but I think you better give a diet some thought. I mean it. I'm serious". Yana bir holat orqali muallif Erldagi yashirin xudbinlikni ham fosh etadi. Erl ishlamas, oilani ta'minlamas, ammo ayolining pullarini hisoblab, ishlatishdan hijolat bo'lmaydigan darajada xudbin edi. "Every three or four days he drove someplace for an interview, and at night he counted her tips. He smoothed out the dollar bills on the table and stacked the nickels, dimes, and quarters in piles of one dollar". Xullas, hikoyada yozuvchining g'oyaviy niyati, taqdirning aniq manzaralari-obrazlar orqali ixcham va soddada shaklda gavdalanadi. Undagi umuminsoniy g'oyalar esa asar to'qimasiga chuqur singdirib yuborilgan. O'quvchi asarni o'qib, voqealarning talqinidan, xaraterlarning mantiqiy ketm-ketligidan g'oyani anglab oladi va mustaqil tahlil qilishga harakat qiladi. Zero, Karver hikoyalarining asl g'oyaviy-badiiy mazmuni va yashirin maqsadini tushunish uchun bir marotaba o'qish yetarli emas.

Kuchsiz hikoyaning asosiy kasali-g'oyaning noaniqligidir. Noaniq g'oya-kuchsiz hikoya demakdir. Hikoyada bir necha personaj bo'lishi mumkin. Ular har xil gapiradilar, har xil harakat qiladilar, ya'ni ular har xil xarakterlardir. Biroq, xarakterlar turli bo'lishidan qat'iy nazar, ularning har bir harakati asosiy g'oyani ochish uchun xizmat qilishi kerak[7]. Abdulla Qahhor tomonidan yaratilgan hikoyalarda ilgari surilgan g'oyalar ham xarakterlar, detallar va voqealar orqali o'z aksini topadi. Xususan, yozuvchining "Boshsiz odam" hikoyasidagi birlamchi masala erkisizlik, irodasizlik, mutelik, johillik va mustaqil fikrsizlik kabli jamiyatda uchraydigan illatlarning qay darajada inson shaxsiyatida namoyon bo'lishini ko'rsatib berishdan iboratdir. Asar qahramoni usta Abdurahmonning qay darajada johil va beshavqat ekanligini eri o'lib, ikkinchi marta u bilan turmush qilgan Niso buvi va uning qizlariga qilgan ayovsiz munosabatidan ko'rish mumkin. Qahramonning asl xarakteristikasini ochib berish uchun bir nechta jumlaning o'zi kifoya bo'lgan, ortiq tavsiflar va ta'riflarga hojat yo'q: "Usta Abdurahmon qizlarni ko'p uradi. Bir kuni Niso buvi: «Ursangiz o'sha do'koningizga olib borib uring», deganida usta: "Ha, joning achiydimi, bundan keyin men urayotganda kulib turmasang uch taloqsan..." deb yubordi. Shundan keyin Niso buvi ko'p martalab "kuldi" [8]". Otasining gapidan chiqmaydigan, o'z erkin fikri va dunyoqarashiga ega bo'lmagan Abdurahmonning o'g'i Faxriddin esa asar g'oyasini yuzaga chiqarishda alohida o'rin egallaydigan qiyofa bo'lib, hikoyaga hajviylik tusini beradi. U otasining xohishi bilan Nazira buvining qizi Mehriqqa uylanadi, ammo hech narsa o'zgar olmaydi, irodasiz va noshudligicha qoladi. Faxriddinning bunday irodasiz va kuchsiz bo'lib voyaga yetishida johil otanin hissi beqiyos albatta. Qahramondagi

bu qadar o'zlik, tor dunyoqarash, fahm-farosatning tanqisligiga urg'u berish orqali muallif faqatgina biror shaxsni tipiklashtiribgina qolmay, jamiyatda uchraydigan shunday "boshsiz", "mustaqil fikrsiz", "kim nima desa o'ylamay bo'ysunadigan", "faqatgina buyruqqa bo'ysunadigan" insonlar ustidan keskin kuladi va ularning ongsiz harakatlarini tanqid qiladi. Hattoki farzandidan judo bo'lib, bemor ayolini ko'rish uchun borganda ham Faxriddin so'zidan biror so'z qo'sholmas, otasining gaplarini qaytaradi:

- Yaxshimisan...uyda sen yo'q, dadam qiynalib qoldilar. Yomon bo'lar ekan...

- Kundan-kun battar bolgan edim, olib tashlashdi... Naq o'layozdim...

- Xavriyat.

Biroz avval otasi aytgan "xavriyat" so'zi ham Faxriddin tomonidan tilga olinadi, ammo qay o'rinda ishlatishning esa ahamiyati yo'q edi. Yon-atrofdagi voqea-hodisalarga loqayd, ma'nan qashshoq, majruh insonlar haqida so'z borganda, "Faxriddin"ning qiyofasi ko'z oldimzda gavalandi. Quyidagi gap orqali esa qahramonning chindan ham "boshsiz odam" ekanligi yaqqol ko'rsatib beradi:

T/r	Personajlar	Johil	Erksiz	Mustaqil fikrsiz
1	Dorin		O'z jismiga, puliga egalik qilolmaydi, erining buyruqlarini bajarishdan tonmaydi. Uning gaplariga hamisha quloq soladi, ustidan nazorat qilishiga qo'yib beradi.	
2	Erl	Ayoliga beshavqat, sovuq munosabatda bo'ladi, unga obyekt sifatida qaraydi, har tomonlama nazorat qilishga harakat qiladi, ovqat yeyishni to'xtatishini so'rashdan ham andisha qilmaydi.		O'zining erkaklik hamiyatini yo'qotgan, jamiyatning va atrofdagilarning fikriga qarab ish ko'radi, begona odamlarning o'rinsiz gaplari va tanqidlari tufayli rafiqasini vazn tashlashga majbur qiladi, ijtimoiy fikr ortidan ergashadi.
3	Faxriddin		Hattoki kimga uylanishini ham otasi belgilab beradi, kasal xotini ko'rish uchun ham undan ruxsat oladi, ayoli og'riqdan to'lg'onib chiqqanda ham, otasi izn bermaguncha uni kasalxonaga olib bormaydi, kaklikka suv qo'yib o'tiradi.	O'zi mustaqil qaror qabul qilolmaydi, bir so'zni ham ongli ravishda aytmaydi, farzandli bo'lish masalasida ham otasi bilan maslahatlashishni niyat qiladi, xotiniga aytishi kerak bo'lgan gaplarni ham otasining so'zlari bilan ifodalaydi.
4	Abdurahmon	Ayoli va uning bolalarini haqoratlaydi, qo'l ko'taradi, birovning fikri bilan hisoblashmaydi, Nazira buvining qizlarini urayotganda uni "kulib" turishga majbur qiladi. O'g'lini "boshsiz" qilib tarbiyalaydi.		

Xulosa va takliflar. Xullas, Raymond Karver va Abdulla Qahhor tomonidan yaratilgan hikoyalarda g'oyaviy, mazmuniy, qahramonlarning xarakteristikasi jihatidan qisman yaqinlik kuzatiladi. Ikkala adibning ham ijodiga mansub asarlarda chuqur umuminsoniy, hamda umumbashariy g'oyalar jam bo'lgan bo'lib, rang-barang obrazlar va tugal

voqealar orqali sodda shaklda o'quvchiga tuhfa etilgan. Asarlarni o'qish davomida undagi g'oya va mazmuni sekin-asta anglab yetamiz va ijtimoiy tuzum, jamiyat ahvoli, insonlar dunyoqarashi, davr talabi kabi masalalar yuzasidan tanqidiy fikr yuritimiz.

ADABIYOTLAR

1. Л.Толстой. О литературе. -С. 292
2. А. Чехов. Собр.соч. в двенадцати томах. Т. 8.М.. 1962. -С.476
3. Sulon.I. Adabiyot nazariyasi. T.: O'qituvchi NMIU, 2005. -B. 100.
4. Analysis of Raymond Carver's Short Stories – Literary Theory and Criticism
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 105-106.
6. Carver.R. Collected Stories. The Library of America. New York, NY 10022, 2009. -P.19.
7. Nazarov. B. Adabiy turlar va janrlar. 1-jild.T.: Fan nashriyoti, 1991. -B. 76
8. Qahhor.A. Anor.-T.:G'.G'ulom nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2024, -B.152-153.